

AJDODLAR ILMIY MEROSI UCHINCHI RENESSANS ASOSI

Xusanova Madinaxon Askarovna
*Andijon viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o`rgatish milliy markazi
o`qituvchisi.*

Jahonda ro'yi berayotgan voqeliklarga nazar soladigan bo'lsak bugun dunyoning qaysi bir davlatlarida ilmu-fan rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan bo'lsa, qaysi bir davlatlarida esa urish va nifoqlar avj olib, ushbu mamlakatlarda ta'lim va tarbiya izdan chiqmoqda. O'zining turfa ko'rinishi bilan rang-baranglik kasb etayotgan dunyo hamjamiyatida mustaqil davlat sifatida shakllanib, rivojlanib kelayotgan O'zbekistonda ilim-fanga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, aholisining qarib 55 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etayotgan mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti maktab ostonasidan boshlanadi" shiori ostida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan halqimizga tabrik yo'llagan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ertangi kunimizning egalari bo'lgan yoshlarimiz uchinchi renessans asoschilari ekanligiga e'tiborini qaratib, quyidagi so'zlarni ilgari surdi: "Siz istiqloq farzandlari, ozod va erkin, hur fikrli insonlar sifatida hayotga dadil kirib kelayotganingiz biz uchun eng katta baxt, katta davlatdir.

Men ishonaman, sizlar zamonaviy bilim va taraqqiyot cho'qqilarini puxta egallab, biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirasiz.

Yuksak g'ayrat-shijoatingiz va fidokorona mehnatingiz bilan yurtimizda Yangi O'zbekistonni – Rennessansni bunyod etishga albatta qodir bo'lasiz."⁹²

Darhaqiqat ertangi farovon kunimizning egalari bo'lgan yoshlarimiz dunyoning rivojlangan davlatlari yoshlari bilan nafaqat bellasha oladigan, balki ajdodlarimizga mos bo'lgan yoshlar sifatida jahon ilim-fan rivojida o'zining mustaqil so'zini ayta oladigan bo'lib kamol topishlari Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan Uchinchi Rennessans g'oyasining asosidir. Biz orzu qilayotgan uchinchi renessansga yangi uyg'onish davriga tamal toshini qo'yar ekanmiz, bunda biz avvalo renessans so'zining lug'aviy manosiga e'tiborimizni qaratmog'imiz darkor. Ushbu so'z fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk

⁹² Mirziyoyev Sh. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi.// <https://review.uz/oz/post/vstuplenie-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-ceremonii-posvyashennoy-30-letiyu-nezavisimosti-uzbekistana>

bor atama Yevropada oʻrta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qoʻllanilgan⁹³. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa oʻzbek tiliga Uygʻonish davri deb oʻgirilgan. SHarqda ilk uygʻonish davri deb atalgan IX –XII asrlarda islom mamlakatlarida ayniqsa, Oʻrta Osiyo zaminida koʻplab olum-u fuzalolar yetishib chiqdi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad al-Fargʻoniy singari buyuk mutafakkir va olimlarni yetishtirib chiqargan boʻlsa, ikkinchi uygʻonish davri boʻlgan XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida ham Movaraunnaxr va Xuroson zaminidan koʻplab allomalar yetishib chiqdi. Bu davrda Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari shoh va shoir buyuk mutafakkir olimlar yashab ijod etib, dunyo ilm –fani rivojiga oʻzlarining buyuk hissalarini qoʻshdilar.

Binobarin, bugun uchunchi renessans davriga tamal toshini qoʻyar ekanmiz, bunda ertangi yorugʻ va farovon kunimiz egalari boʻlgan yoshlarni jismonan baquvvat, aqlan sogʻlom, barkamol inson etib tarbiyalashda Oʻrta asr SHarq uygʻonish davri allomalarining yozib qoldirgan boy ilmiy meroslaridan oqilona foydalanish oʻzining samarasini beradi. Zero, Imom Buxoriy, Ibn Sino, Ahmad al-Fargʻoniy, Xorazmiy, Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk mutafaakir alloma va olimlarning asarlarida islom maʼnaviyati, inson kamolotida sogʻlom turmushning ahamiyati, dunyoni bilish va anglashda aniq va tabiiy fanlarning oʻrni, jamiyatda sogʻlom fikrli kishilarni kamol topishida ruh va jasadni poklash eng yetakchi omil ekanligini koʻrish mumkin.

SHarq uygʻonish davri mutafakkirlarining ilmiy merosini oʻrganish orqali uchunchi renessansni qurishga asosiy eʼtiborni qaratar ekanmiz bu borada fan-tʼalim, ishlab chiqarish va innovatsiyani rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda taʼlim sohasidagi islohotlarimizni jadal suratda rivojlantirish borasida 2022-2026 yillarga mujallangan taraqqiyot strategiyasida ham asosiy eʼtibor qaratildi. Strategiyaning toʻrtinchi yoʻnalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, ushbu yoʻnalishda 33ta maqsad belgilab olingan. Belgilab olingan 33ta maqsadning qariyb 13tasi aynan taʼlim tizimiga qaratilayotganligining oʻzi ham mamlakatimizda zamonaviy barkamol insonni tarbiyalashga nechogʻli eʼtibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jumladan, ushbu maqsadlarda maktabgacha taʼlimdan tortib, maktab taʼlimi tizimida 2022-2026 yillarda taʼlim va tarbiya sifatini yanada oshirish borasida olib boriladigan ishlar maqsadi belgilab olingan. Binobarin, 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq taʼlimi tizimida qoʻshimcha 1,2 million oʻquvchi oʻrni yaratishga qaratilgan boʻlsa, 42-maqsadda esa 2026- yilga qadar oʻquv dasturlari va darsliklarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida toʻla qayta koʻrib chiqib, amalda joriy etishni nazarda tutadi. Maktabda taʼlim va tarbiyani rivojlantirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda, avvalo, oʻqituvchilarning moddiy sharoitini yaxshilash darkor boʻladi. Taraqqiyot strategiyasining 43-maqsadi aynan malakali oʻqituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazishni koʻzda tutadi. Oʻz navbatida, oʻqituvchi-

⁹³ <https://xs.uz/uzkr/post/uchunchi-renessans-millij-goya-sifatida>

pedagoglarning oylik maoshlarini 1000 AQSH dollariga yetkazish ulardan zamonaviy, barkamol insonni chiqarishni talab etadi. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish 44-maqсадda o`z aksini topgan⁹⁴.

Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning davlatimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimida so`zlagan nutqida, ta`lim sohasini isloh etishga e`tibor qaratdi.

Bunda farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko`nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettirishlari uchun maktablarning o`quv dasturlari, o`qitish uslubi, darsliklar mazmunini tubdan qayta ko`rib chiqish, hamda tizimni ilg`or xorijiy mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o`tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etish nazarda tutilgan⁹⁵.

Bugun mamlakatimizda uchinchi renessansni qurishda yoshlarning bilim saviyasini o`stirishda, zamonaviy ta`lim standartlaridan samarali foydalanishga asosiy e`tiborimizni qaratishni davrning o`zi taqozo etmoqda. Shunday ekan ta`limni rivojlantirish va uchinchi renessansga asos solishning turt uzviy halqasi: maktabgacha ta`lim, maktab ta`limi, oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar bo`lib, bog`cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o`qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni to`tr tayanch ustun deb e`tirof etilmoqda.

⁹⁴ Inson qadri, halollik standartlari, pragmatik tashqi siyosat. Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadi // https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm_source=push&utm_medium=chrome

⁹⁵ Mirziyoyev Sh. O`zbekiston mustaqilligining 31 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda nutq